

## ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA AYOL QISMATI TALQINI

***Muazzam Dedaxanova***

*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti*

[muazzam@gmail.com](mailto:muazzam@gmail.com)

***Shuhrat Tagaev***

*Kolumbiya universiteti*

*Pedagogika fakulteti doktoranti*

[smt2149@tc.columbia.edu](mailto:smt2149@tc.columbia.edu)

---

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xotin-qizlarning qadr-qimmati, erki, jamiyatdagi o‘rni masalasi xususida so‘z boradi. Hayotda ayollarning o‘z o‘rnini topa olish-olmasligi ulardagি jasorat, o‘ziga nisbatan ishonch, sabr-toqat kuchli bo‘lishi bilan bog‘liq. Ayol qismati erkak taqdiriga nisbatan ancha murakkab. Islomiy tarbiyaga muvofiq bir qizni ehtiyyot qilib voyaga yetkazish va munosib yigitga turmushga berish ham juda mas‘uliyatli, jiddiy masala. Chunki qiz oila sha’ni, or-nomusi hisoblanadi. Tarixda ayollar haq-huquqiga ko‘p cheklov qo‘yilishi oqibatida, ular og‘ir sharoitda hayot kechirdi. Biroq bugungi globallashuv jarayonida xotin-qizlarga qancha ko‘p imkoniyat yaratilmasin, hozir ham dangasalik va boylik ilinjida noto‘g‘ri yo‘lni tanlab, hayoti izdan chiqayotgan qizlar yo‘q emas. Abdulla Qahhorning “Dahshat”, “Maston”, “Nurli cho‘qqilar” kabi hikoyalari misolida ushbu masalaga to‘xtalib o‘tiladi. Bu orqali “adabiyot – hayot darsi, uni o‘qish katta tajriba, hayotiy saboq beradi”, deya baxtli kelajakka erishish uchun hayot sinovlariga yuzaki qaramaslikka chaqiriladi.

**Kalit so‘zlar:** “Dahshat”, “Maston”, “Nurli cho‘qqilar”, Unsin, Maston, Turg‘unoy, Zuhra, Fotima.

Afsonlarga aylangan To‘maris va Zarina jasorati-yu Xonzodabegim fidoiyligi, Mohlaroyimning “Nodirayi davron” sifatida nom qoldirishi-yu Uvaysiy, Dilshodi Barnolarning og‘ir vaziyatda yashayotganiga qaramay, xotin-qizlar tahsiliga e’tibor qaratib, bu borada munosib hissa qo‘sha olganida bugungi kun uchun katta ibrat bor. Bir qo‘lida beshik, bir qo‘lida dunyoni tebratgan ayol tarix zarvaraqlarida goh dunyoni qutqaruvchi go‘zallik timsoli sifatida ulug‘landi, goh zaifa deb mazlumlikda xor qilindi. Vaholanki, “Qur’oni Karim”ning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatida ayol so‘zining qo‘llanishi va suralardan biri aynan “Niso”, ya’ni “Ayollar” deb nomlanishi, unda ayolning mavqeyi, hayotdagi o‘rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi ayollarga bo‘lgan e’tiborning yorqin misolidir” [3]. Bundan ko‘rinadiki, gender tengligi, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni masalasi ko‘p yillardan buyon kuzatilib, e’tibor qaratilib kelinayotgan jiddiy mavzulardan biri hisoblanadi [1].

XX asrda milliy adabiyotimizning buyuk vakili, o‘zbek hikoyachilik mакtabining asoschisi Abdulla Qahhor ham xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, haq-huquqi masalasiga jiddiy e’tibor qaratgan edi.



Uning qizg‘in ijodiy faoliyati XX asrning eng fojiali paytida, mudhish 30—50-yillar sharoitida kechdi. “Norin shilpiq”, “Mavlon Kufur”, “Gulyor”, “Erkaboy”, “E-boy” taxalluslari bilan matbuotda tanilgan [4] ijodkor “Sarob” romani va “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Adabiyot muallimi”, “San’atkor” kabi jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorda turuvchi hikoyalar, deya baholangan asarlari orqali adabiyot maydonining bahodirlaridan biriga aylandi.

Abdulla Qahhor nihoyatda sinchkov, dolzarb muammoni e’tibordan chetda qoldirmaydigan va unga yechim qidiradigan noyob iste’dod sohibi edi. Uning 50-yillardagi ijodi xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi, erki, qadr-qimmati masalasiga alohida e’tibor qaratilgani bilan ajralib turadi. Jumladan, 1956-yili “Ming bir jon” hikoyasi, so‘ng birin-ketin “Dahshat”, “Nurli cho‘qqilar” e’lon qilindi. Bular milliy hikoyachiligidan rivojiga o‘zgacha ruh olib kirdi. 1958-yilda esa adibning “Sinchalak” qissasi katta dovrug qozondi. E’tiborli jihatlardan biri shundaki, “Ming bir jon”, “Dahshat”, “Maston”, “Nurli cho‘qqilar”, “Xotinlar”, “Kampirlar sim qoqdi” hikoyalari, “Sinchalak” qissasi, “Sarob” romani kabi asarlarining barchasida ayollardagi jasorat, o‘ziga ishonch ulug‘lanadi. Ammo “Ming bir jon”dagi Mastura, “Sinchalak”dagi Saida kabi jamiyat qoidalari, cheklovleri, hayot sinovlari bor ekan, hammasi ham g‘olib bo‘lavermaydi. Xususan, “Dahshat” hikoyasini olaylik. Bosh qahramon Unsin – o‘z erki uchun kurashgan, ma’naviy zulmdan qutulishga intilgan, mag‘rur va jur’atli ayol. Haq-huquqi uchun kurashuvchi shunday ayollar ko‘paysin, unib-o‘ssin mazmunida Unsin deya ism qo‘yilishi ham bejiz emas. Olimbek dodxo – zamonaning zolim erkaklari, zug‘um va zo‘ravonlik timsoli. U olim bo‘lsa ham, ilmiga amal qilmaydigan nafs bandasi. Nodirmohbegim – zamonaning mute va itoatkor, taqdirga tan beradigan ayollari timsoli. Bu asar orqali qo‘shtotinlik qoralanadi, ayol hech qachon bunday hayot orqali baxt, qadr-qimmat topa olmasligi haqidagi g‘oya ilgari suriladi. Mazkur jihat, ayniqsa, ushbu parchada yorqin isbotini topgan: “Dodxoning savoli javobsiz qolishi mumkin emas edi. Shuning uchun bittasi gunoh qilsa, hammasi baravar kaltak yeydigan kundoshlar Unsinni turkilashdi” [4].

Darhaqiqat, Unsin uchun bu boy xonadonda erksiz yashashdan ko‘ra o‘z oilasida nochorlikda yashasa ham, hur, erkin yashash afzalligi bejiz emas. Shu kuch uni ko‘pchilik erkaklarning ham qo‘lidan kelmaydigan jasoratga undaydi: “Go‘riston to‘g‘risida dodxo nimalar eshitgan bo‘lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi dodxo xayolida go‘riston qandoq dahshatli bo‘lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shundoq bo‘lsa ham, tiriklar go‘ristoni bo‘lgan bu dargohning dahshati oldida o‘liklar go‘ristonining dahshati unga dahshat ko‘rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo‘nash, ota-onasini, dugonalarini ko‘rish umidi uning boshiga hech qanday fikr-xayolni yo‘latmas edi” [4]. Bu o‘rinda, “dahshat” so‘zini besh marta takrorlash orqali unga urg‘u berilishi-yu “tiriklar go‘ristoni bo‘lgan bu dargohning dahshati oldida o‘liklar go‘ristonining dahshati unga dahshat ko‘rinmas”ligi tasviri yoshgina qahramon jasorati, erk uchun kurashishi, ruhiyatini ro‘yi-rost ochib bergen. Parchada go‘riston va o‘lim voqeasi erk va hurriyat uchun jonfidolik ramzidir.

Kambag‘al tegirmonchining qizi Unsinning Olimbek dodxoga sakkizinchi xotin bo‘lishi bejiz emas, albatta. “O‘zbek xalqida qiz-ayollarning kelajagi bilan bog‘liq qarorlar, odatda, oila kattalari tomonidan qabul qilinadi va ular bu qarorga amal qilishi shartligi ushbu maqolda aks ettirilgan: “Qiz bola degani palaxmon toshi, qayerga otsa, shu yerga tushadi” (M. 1989: 408)... Bu yerda ayol kishi o‘z taqdirini o‘zi belgilay olmasligi aytilib, uning hayot chizig‘ini palaxmon toshining boshida turgan oila a’zolari belgilashi ta’kidlangan” [5: 9].

Hikoya so‘ngida Nodirmohbegim zulmga qarshi bosh ko‘tarib, dodxoning uyini tark etadi. Ammo ayol ojiza sifatida qaralib, uning huquqi chegaralangan jamiyatda yolg‘iz qolgan ayolning kelajak taqdiri qanday bo‘lishi ham qorong‘u edi.

“Maston” hikoyasidagi Maston va Turg‘unoy misolida ham bu holni ko‘rishimiz mumkin. Turg‘unoyning: “Ikki ko‘zing ko‘r, qo‘l-oyog‘ing shol bo‘lsa ham, erkak bo‘l ekan-da... Bu alvastidan chiqsam, ko‘chada qolar edim”, deya taqdirga tan bergani-yu ammasining yoshgina qizi qari



Abdurazzoq do‘ppifurushga tushib, “pes bo‘lsam, qo‘yib yuboradi”, deya o‘ziga ayovsizlik qilishi ojizlikdan edi. Ammo Maston qiz bola bo‘lishiga qaramay, orzulari yo‘lida jasorat topib, Turg‘unoy bilan o‘qish uchun yo‘lga otlanadi. U harakat qilishdan oldin o‘z muhitida ayol taqdiriga qo‘yilgan cheklovlar, baxtslik ildiziga yechim topgan edi. Shu sababdan u Turg‘unoyga shunday deydi: “... menimcha, baxtni erdan izlashning o‘zi baxtsizlikning boshlanishidir. Bizda xotinlar erga shunday bog‘lanib qoladi, shuncha baxtni undan izlaydiki, er o‘lsa, go‘yo baxtining kaliti uning cho‘ntagida ketgan bo‘ladi, erining olganiga emas, baxtdan umidi uzilganiga yig‘laydi. Er o‘lmasdan, undan yuz o‘girma ham, xotin bundan kam yig‘lamaydi. Bizda ko‘p xotinlar shu kalitni yo‘qotmaslik, ana shunday ko‘z yoshi to‘kmaslik uchun erga cho‘ri, qul bo‘lib yashaydi...” [4]. Bu gaplari bilan Maston ayollar yolg‘iz yashasa ham, baxtli yashashi mumkin, der ekan, erkakning o‘rni yo‘q, demoqchi emas, albatta. Ayol sevib-sevilib yashashi uchun oila muhabbat bilan qurilishi kerak, “yo‘qdan ko‘ra shu ham bo‘laveradi”, deya taqdirga tan berish, o‘z kunini ko‘ra olmay, ernenq qo‘liga qarab qolish, tabiiyki, xotinni qulga aylantiradi, demoqchi bo‘ladi. Faqat pul, boylik uchun turmushga chiqish bu, haqiqatan, erkakni ham baxtsiz qilishdir.

“Nurli cho‘qqilar” hikoyasi qahramoni Zuhra esa endigma 9-sinfda o‘qishiga qaramay, o‘ta o‘ziga ishongan, mag‘rur, jur’atli bo‘lib, yaqinlarini o‘ylamay, ogohlantirmagani holda “baxtni erdan izlashning o‘zi baxtsizlikning boshlanishi” ekanini isbotladi. Yaqinlarini qadrlamaydigan xudbin odam qadr topmasligi, tabiiy. Sevgi uchun yoshlik qilib hamma narsadan kechgan Zuhra xudbinlik, o‘zboshimcha, o‘zbilarmonlik xarakteri tufayli orzusidagi baxtni ham qadriga yetmadni. Bugungi kunda ham bunday ayollar ko‘p uchraydi. To ayriliq soya solmagunicha sevgan odamni qadrini oyoq osti qilib tashlaydi. Ayrilgach, xatosini tushunib yetsa ham, mag‘rurlik, xudbinlik ustun kelib, aybini oshkora tan olishni xohlamaydi. Shu bois o‘z hayotini ham barbod qiladi, alamini yon-atrofidagilardan, ayniqsa, ojiz farzandidan olib, o‘z hayotini izga tushirishga, yana baxtli bo‘lishga kuch topa olmaydi. U uchun xatosini tan olish, o‘lim bilan barobar. Dili bilan tili bir xil bo‘la olmayotganini harakatlari isbotlab tursada, unga buni tan oldirish qiyin. Bunday ayollarning baxtsizligi sababi ham shunda. Har qanday vaziyatda ham ayol o‘z qadrini bilgani holda o‘z vazifasini ham bilishi, yaqinlariga ozor bermasligi zarur. Maktab yoshidagi qizning sevgi yo‘lida butun borlig‘i: or-nomusi, ota-onasi, tug‘ishganlaridan voz kechishi, oila sha’nini bulg‘ashi – bu har qanday zamonda ham, adashish, o‘z qadrini yo‘qotish, kelajagini barbod qilish, demakdir. Zuhradan farqli o‘laroq singlisi Fotima esa birdan yuqori cho‘qqini ko‘zlamay, kamtar, mehnatkashligi bilan fermada sut sog‘uvchilikdan ish boshlab, jamiyatda o‘z o‘rni va baxtini topadi. Boshiga baxt qushi qo‘nganidan sarmast bo‘lib, basar-tusarini bilmay, mag‘rurlik, xudbinlik supasiga chiqib olish har qanday jamiyatda ham xotin-qizlar husnini buzuvchi eng katta illat ekanini A.S.Pushkinning “Baliqchi va baliq haqida ertak” (“Oltin baliq”) asari misolida ham ko‘rshimiz bejiz emas.

Bugungi globallashuv jarayonida ayollar xizmatisiz taraqqiy etayotgan hech bir soha yo‘q, deb ayta olamiz. Vaqt o‘tib, ayollar o‘ziga berilgan ishonchni o‘z jasorati, irodasi bilan oqlamoqda. Shunga qaramay, xayoliy orzuga berilib, yengil hayotga qiziqish oqibatida kelajagini o‘ylamay, adashayotganlar ham yo‘q emas. Abdulla Qahhor qayg‘organidek, afsuski, hozir ham “Dahshat”dagi Unsin hayotini, kundoshlik izardirobini o‘zi tanlab, “Nurli cho‘qqilar”dagi Zuhrani yo‘lini tutayotganlar bor, “Sarob”dagi Munisxondek keyingi pushmonlik tufayli hayoti izdan chiqayotganlar topiladi. Bularning barchasi dangasalik, uquvsizlik, irodasizlikdan. Vaholanki, endilikda ayol-qizlarga yaratilgan imkon hech bir zamonda amalga oshmagan bir orzu edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan oliy ta’limda o‘qish uchun xotin-qizlarga ko‘plab imkoniyatlar yaratildi. Qolaversa, magistraturada o‘qishni davom ettirishlari uchun kontrakt pulidan ozod etildi. Kasb-hunar egallash, ish o‘rnlari yaratish bo‘yicha hududlardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga ustuvor



ahamiyat berib kelinmoqda. Bu esa ijtimoiy yordamga muhtojligi tufayli o‘z g‘oya va tashabbuslari armonga aylanayotgan qiz-ayollar uchun katta imkoniyat eshiklarini ochdi. Imtiyozli kredit yana minglab qiz-ayollar uchun yangi ish o‘rnlari yaratilishiga zamin hozirladi.

Unutmaslik kerakki, har bir ayol o‘zi orqali nafaqat oilasi, mahallasi, balki millati, butun yurti sha’ni, obro‘sini himoya qilishga mas’ul. Farzand tarbiyasida ham onaning roli nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bois xotin-qizlar masalasi, avvalo, oilaga, jamiyat kelajagiga, Vatan taqdiriga bo‘lgan cheksiz e’tibor ifodasi sifatida har qanday zamonda ham siyosat darajasida ahamiyat berilishi zarur, dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgani bejiz emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altmishbayevna, D. M. (2024). Alisher Navoiy dostonlarida ayol timsoli talqini. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(2), 182-185. (<https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/9736/8891>)
2. Dedakhanova, M. (2022). Criteria for Determining the Author of the Speech as a Problem of Theoretical Linguistics. International Journal on Integrated Education.
3. Qodirov B. (2021) O‘zingsan Vatanning jamoli, o‘zbekning farishta ayoli. – 09.03. Madaniyat. (<https://yuz.uz/uz/news/ozingsan-vatanning-jamoli-ozbekning-farishta-ayoli>)
4. Ziyo istagan qalblar uchun! - Kutubxona - O‘zbek nasri (<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri>)
5. Öz Özcan A. (2009). Kadınlarla İlgili Özbek Atasözleri. ISBN : 978-975-6355-29-9 1. Nisan – Ankara.

